

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLARNI IDENTIFIKATSIYA QILISHDA PSIXOLOGIYA VA PSIXIATRIYA SOHA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nizomova Shahrigul Karimboy qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat qonunchiligini qo`llash nazariyasi va amaliyoti” soha mutaxassisligi magistranti

Shahrigulnizomova12@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jinoyat sodir etgan shaxslarni identifikatsiya qilishda ularning “psixologik portret”ini yaratish asoslari va uning surishtiruv, tezkor-qidiruv va tergovdagi ahamiyati hamda “psixologik portret” yaratish jarayonida e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan jihatlar yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: “psixologik portet”, jinoyat sodir etgan shaxs, jabrlanuvchi, tergov, psixologik tahlil, sud ekspertizasi

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТРАСЛЕВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПСИХОЛОГИИ И ПСИХИАТРИИ ПРИ ИДЕНТИФИКАЦИИ ЛИЦ, СОВЕРШИВШИХ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются основы создания “психологического портрета” лиц, совершивших преступление, и его значение в дознании, оперативно-розыскной деятельности и расследовании, а также аспекты, на которые следует обратить внимание в процессе создания “психологического портрета”.

Ключевые слова: "психологический портрет", лицо, совершившее преступление, потерпевшее, следствие, психологический анализ, судебная экспертиза

DISTINCTIVE FEATURES OF THE USE OF THE POSSIBILITIES OF THE FIELD OF PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY IN THE IDENTIFICATION OF PERSONS WHO COMMITTED CRIMES

ANNOTATION

This article covers the basics of creating a “psychological portrait” of persons who have committed a crime and its importance in inquiry, operational-search and

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

investigation, as well as aspects that should be noted in the process of creating a “psychological portrait”.

Keywords: "psychological portrait", person who committed a crime, victim, investigation, psychological analysis, forensic science

KIRISH

Hozirda zo`ravonlikning kuchayishi murakkab jinoiy ishlarni tergov qilish samaradorligini oshirish maqsadida tezkor-qidiruv, surishtiruv va tergov ishlarining yangi shakllari va usullarini amaliyotga joriy qilishni talab qilmoqda. Ushbu sohalarda muvaffaqiyatga erishish uchun jinoyatning subyektiv tomonini, ya'ni jinoyat sodir etgan shaxsning psixologik xususiyatlarini aniqlay olish qobiliyatiga ega bo`lish lozim. Ushbu qobiliyat yashirin jinoyatlarni ochish va tergov qilishda, uning ishtirokchilari to`g`risida ma'lumotlar to`liq va to`g`ri olinishi uchun imkoniyat yaratadi.

Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida yuzaga keladigan bir qator muammolarni hal qilish psixologik fan yutuqlaridan foydalanishni talab qiladi. Tergov va sud amaliyotini o`rganish shuni ko`rsatadiki, maxsus psixologik bilimlarni o`z vaqtida va oqilona qo`llash natijasida jinoyat ishlarini adolatli hamda to`g`ri hal qilish uchun zarur bo`lgan ko`plab ma'lumotlarni aniqlash imkoniyatini sezilarli darajada oshishiga hissa qo`shib kelmoqda. Jinoyat protsessida ishtirok etgan shaxslarning o`ziga xos harakatlari sabablari va ichki mexanizmlarini, ularning psixologik xususiyatlarini obyektiv ravishda aniqlash va baholashga imkon beradigan maxsus psixologik bilimlar va ilmiy psixologiya usullaridan foydalanish katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Psixologiya fani ko`plab eksperimental va nazariy ma'lumotlarga, jinoiy ishlarni tergov qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo`lgan aniq tadqiqot usullariga egadir[1].

ASOSIY QISM

Metodologiyani qo`llash, psixologik portretni yaratish istiqbollari uning jinoyat ishini yuritishning turli bosqichlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan xizmat faoliyatining bir qator asosiy muammolarini hal qilishdagi imkoniyatlari bilan belgilanadi, ya'ni: ishda gumon qilinuvchilar doirasini aniqlash va toraytirish; hibsga olinganda jinoyatchining xatti-harakatlarini bashorat qilish va boshqalar orqali.

Jinoyatlarni tergov qilishning xorijiy va mahalliy amaliyoti allaqachon jinoyat ishlarida jinoyat sodir etgan shaxsning psixologik portretidan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko`rsatmoqda. Jinoyat sodir etish usuli, vaqti, joyi, jinoiy tajovuz qaratilgan obyekt, jinoyatga tayyorgarlik ko`rish va yashirishga urinish harakatlari va jinoyatlarni

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

tergov qilishning boshqa holatlariga asoslanib, *G.Gross* 1895-yilda jinoyat sodir etgan shaxsning psixologik portretini yaratish zarurligiga birinchilardan bo`lib e`tibor qaratgan. Uning fikricha, jinoyatlarni samarali tergov qilish jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsini o`rganish va jinoyatning o`zini bilish orqali amalga oshiriladi[2]. Ushbu ikki komponentning o`zaro aloqadorligi va o`zaro bog`liqligiga asoslangan metodologiya u tomonidan “*jinoyat izlari - jinoyatchining shaxsi*” formulasiga tushiriladi. Ushbu formulani hisobga olgan holda, u o`zining “*Sud tergovchilari, umumiy va jandarm politsiyasi darajalari uchun qo`llanma*” nomli qo`llanmasida jinoyatchining shaxsiga emas, balki milliy belgi bilan birlashtirilgan shaxslar guruhiga “psixologik portret” yaratish bo`yicha tavsiyalar beradi. Tadqiqot uchun u o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan xalqni - lo`lilarni tanlagan.

Shaxsi noma`lum jinoyat sodir etgan shaxs psixologik portretini yaratishning asosiy muammosi shundaki, hodisaning moddiy, kuzatiladigan elementlari bo`lgan kriminalistik belgilaridan, jinoiy xatti-harakatlarning subyektiv, kuzatilmaydigan elementlari bo`lgan jinoyatchi shaxsining psixologik xususiyatlariga to`g`ridan-to`g`ri o`tish mumkin emas. Ular tabiatan shakllanish va namoyon bo`lish mexanizmlarida bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ularda to`g`ridan-to`g`ri sababiy bog`lanish ham mavjud bo`lmaydi[3].

Psixologik portretning quyidagi asosiy turlari mavjud:

- *qidiruv* – jinoyatlarni tergov qilish jarayonida foydalanish uchun. Bu o`z navbatida qidiruv va identifikatsiyaga bo`linishi mumkin;
- *bashorat qilinadigan* – jinoyatchi xatti-harakatlarini bashorat qilish uchun (hibsga olinganda);
- *tergov* – gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) bilan tergov harakatlarini amalga oshirishning samarali taktikasini yaratish;
- *penitensiar* – axloq tuzatish-tarbiyaviy ta`sirni tashkil etish, axloq tuzatish va mehnat muassasalarida jinoiy jazolarni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan boshqa muammolarni hal qilish uchun;
- *Postpenitensiar* – ma`lum bir shaxsga nisbatan qo`llaniladigan muayyan ta`sir choralarining samaradorligini baholash va ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilinganidan keyin jinoiy faoliyatini davom ettirishga jinoiy tayyorgarlik darajasini bashorat qilish[4].

Ayblanuvchi haqidagi dastlabki ma`lumotlarning mazmuni va aniqligiga qarab, portretlarning ikki turini ajratish mumkin: ma`lum jinoyatchining psixologik portreti va noma`lum jinoyatchining (aniqlanmagan) psixologik portreti.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

Yuqoridagilar doirasida noma`lum jinoyatchining qidiruv, bashoratli va qisman tergov psixologik portretiga e`tibor qaratish lozim.

Shaxsi noma`lum murdalar shaxsining portretini tuzishda, ular to`g`risidagi ma`lumolarni to`plash muhim hisoblanadi. Ushbu holatda shuni aytish lozimki, shaxsi noma`lum murda topilganda, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining qidiruv faoliyati ikki yo`nalishda tashkil etilishi kerak: *birinchisi* - jabrlanuvchi shaxsining portretini tuzish; *ikkinchisi* – jinoyat sodir etgan shaxsning portretini tuzish.

Ikkala holatda ham shaxsning psixologik portreti – ish materiallarida aks ettirilgan jinoiy hodisani kompleks fanlararo tahlil qilish natijasi hisoblanadi. Guvohlarning ko`rsatmalarida, turli xil ekspert xulosalarida keltirilgan hodisa sodir bo`lgan joyni tekshirish jarayonida olingan ma`lumotlarni tahlil qilishning yo`nalishi bitta – jinoyatchining shaxsi to`g`risida ma`lumot olish, ya`ni jinoyatchining aqliy va tashqi tuzilish qiyofasining o`ziga xos xususiyatlari, kasbiy yo`nalishi, turmush tarzi, sevimli mashg`ulotlari va boshqalar bilan taxminiy portretini yaratishga imkon beradigan ma`lumotlardir.

Shaxsi noma`lum jinoyat sodir etgan shaxsning qidiruv-psixologik portretini tuzish, jinoyatni tergov qilish jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilishga qaratilgan bo`lib, unda aybdorning belgilarini izlash, qoida tariqasida, hodisa sodir bo`lgan holatlarning izlari va umumiyligi bo`yicha amalga oshiriladi. Uni yaratish zarurati muayyan shaxs to`g`risida ma`lumotlarning to`liq yoki qisman yo`qligi bilan tavsiflangan ma`lum bo`lmagan (noma`lum) jinoyatlarni tergov qilishda murakkab bo`ladi.

Psixologik portret quyidagi xususiyatlarga (tabiatga) ega:

- nisbatan barqaror psixologik mahsulot;
- ehtimollik xususiyatiga ega;
- psixologik obyektivlik; portret voqea haqida ma`lumot manbalarining obyektivligiga bog`liq;
 - bu diskret xarakterga ega. Chunki uning yordami asosida hal qilinishi mumkin bo`lgan vazifalarning ko`pligi aniq bosqich va aniq maqsadni aks ettiradi;
 - o`zini namoyon qiladigan dinamizm, to`ldirish va chuqurlashish qobiliyati;
 - bashorat qila olish, ya`ni aybdor haqida o`rnatilgan psixologik ma`lumotlar uning xatti-harakatlari taktikasini bashorat qilish qobiliyatiga ega bo`lishi mumkin;
 - optimallik, bu ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan uni qo`llashning amaliy imkoniyatlaridan iborat[5].

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

Ushbu portretlarni (modellarni) tuzishda ilmiy va amaliy xodimlar turli “xulq-atvor” soha mutaxassislari – *kriminalistlar, kriminologlar, psixologlar va psixiatrlar* ishtirok etadilar. Ularning birgalikdagi faoliyati samarasi tavsiyaviy xususiyatga ega bo`lgan xulosa yoki ma`lumotnoma hisoblanadi. Jinoyatchining psixologik portretidagi ma`lumotlar dalillarga asoslab emas, balki ularga yo`naltirilgan holda yaratiladi.

Shuni ta`kidlash lozimki, psixologik qiyofa yoki portretlarni tuzish to`g`ridan-to`g`ri psixologlar va psixiatrlar tomonidan yoki ularning majburiy ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Jinoyatchining shaxsini o`rganish xorijiy olimlar *Lombroso, Xuton, Messedagliya, Marro, Grimaldi, Ottolengining* asarlaridan kelib chiqqan. Rus olimlaridan psixologik portretga *Yu.M.Antonyan, V.A.Obraztsov, S.N.Bogomolova, M.I.Yenikejev, V.A.Vereshchagin, A.I.Anfinogenov, A.O.Buxanovskiy, L.P.Konisheva, D.V.Mironovlar* katta hissa qo`shganlar.

Olimlarning fikriga ko`ra, jinoyatchining psixologik portretini yaratish zarurati ma`lum bir jinoyat sodir etgan shaxs to`g`risidagi ma`lumotlarning yetarli yoki to`liq emasligi bilan tavsiflangan aniq bo`lmagan jinoyatlarning ma`lum bir toifasini tekshirishda muhim hisoblanadi: jabrlanuvchining shafqatsiz qiynoqqa solinishi belgilari bilan nomusga tegish oqibatida odam o`ldirish jinoyati; o`limdan keyin pichoqlangan va kesilgan jarohatlar bilan qotillik; jabrlanuvchining jasadi bilan jinoyatchining manipulyatsiyasi belgilarini o`z ichiga olgan qotilliklar; “sababsiz” yong`in chiqarish va portlashlar; nomusga tegish va boshqalar. Bunday holda, jinoyat sodir etgan shaxs belgilarini izlash ko`pincha faqat jinoyat izlari va holatlari asosida amalga oshiriladi.

Jinoyat sodir etgan shaxsning psixologik portretini tuzish metodologiyasi asosidagi psixologik tahlil – uning tashqi qiyofa belgilari to`g`risidagi ish uchun samarali bo`lgan tergov versiyalarini tuzishga, qidiruv jarayonini qisqartirishga, shuningdek tergov jarayoniga jalb qilingan shaxslar orasidan haqiqiy jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlashga imkon beradi.

A.A.Protasevichning ushbu soha doirasida olib borgan tadqiqotlari o`ziga xos xususiyatga ega. U o`z tadqiqotlarida jinoyat sodir etgan shaxsning qidiruv portretining uchta qismdan iborat namunaviy modelini taklif qildi:

- 1) jinoyat sodir etgan shaxsni haqiqiy dunyo obyektini va shaxs sifatida tavsiflovchi belgilar (ijtimoiy-demografik, funksional, aqliy va boshqalar);
- 2) aloqa va munosabatlar turining belgilari (jinoyat sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi, o`g`irlangan mol-mulk, hodisa sodir bo`lgan joy va boshqalarga bo`lgan munosabati);

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

3) jinoyat sodir etgan shaxsning jinoiy faoliyat subyekti va izlarni shakllantirish jarayonida ishtirok etadigan obyekt sifatidagi belgilari (jinoyat sodir etishdan oldin, davomida va undan keyingi harakatlar, jinoyatchining tanasida, kiyimida va u bilan o`zaro aloqada bo`lgan narsalardagi izlar va boshqalar) [6].

Shu o`rinda *A.I.Anfinogenov* tomonidan taklif etilgan psixologik portret tuzish metodining algoritmgiga to`xtalib o`tish maqsadga muvofiqdir. Algoritm ketma-ket to`rtta, ya`ni uni yaratish bosqichlarini hamda voqea izlari va holatlarini tahlil qilishning uch darajasini o`z ichiga oladi[5].

Jinoyat sodir etgan shaxsning psixologik portretini yaratish bosqichlariga quyidagilar kiradi:

- 1) jinoyat hodisasining kriminalistik axborot modelini tuzish;
- 2) vaziyatni modellashtirish;
- 3) jinoyat sodir etgan shaxsning xatti-harakatlarini psixologik tushuntirish orqali talqin qilish;
- 4) psixologik portretida jinoyat sodir etgan shaxsning belgilari to`g`risida xulosa-ma`lumotlarini ro`yxatdan o`tkazish.

Axborot tahlili quyidagi darajalardan o`tadi:

1) *sud ekspertizasi* - jinoyat belgilari, hodisalari va uning holatlari to`g`risida jinoiy faoliyatning tashqi tomoni qayta tiklaydigan moddiy iz ma`lumotlarining to`liq hajmini aniqlash;

2) *xulq-atvor* – “harakatning individualligini baholash metodologiyasi” asosida jinoyatchining harakatlarida uning shaxsini aniqlash;

3) *diagnostik* – jinoyat sodir etgan shaxs xatti-harakatlari subyektiv mazmunini keltirib chiqargan sabablarning mumkin bo`lgan mohiyatini izlash asosida jinoyat sodir etgan shaxsning xulq-atvor xususiyatlarini psixologik xususiyatlar va uning shaxsiyati boshqa belgilari bilan bog`lash.

So`nggi yillarda nafaqat qasddan odam o`ldirish jinoyatini sodir etgan shaxslar, balki boshqa toifadagi jinoyat sodir etgan shaxslarning (axborot texnologiyalari, nomusga tegish jinoyatlari va boshqalar) psixologik portretlarini yaratish bo`yicha tadqiqotlar faol tarzda olib borilmoqda.

Shuni ta`kidlash mumkinki, psixologik portret o`zida insonning ichki, psixologik va xulq-atvor xususiyatlarini aks ettiradi. Uning asosiy vazifasi – shaxsi noma`lum jinoyat sodir etgan shaxsni qidirish va aniqlash vositasi bo`lish hisoblanadi. Psixologik portret unda aks ettirilgan belgilar haqidagi aniq bilimlar asosida emas, balki ehtimoliy (tasodifiy) bilimlar asosida shakllanadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

Shuning uchun jinoyatchining psixologik portretini yaratish metodologiyasini ishlab chiqish voqeani tahlil qilishning o`ziga xos quyidagi psixologik tamoyillariga asoslanadi:

1) kriminalistik xususiyatlarning elementlariga shaxs tomonidan erkin tanlov sharoitida amalga oshiriladigan, ongli va ongsiz motivlar tizimi tomonidan belgilanadigan va subyektiv ravishda kerakli maqsadga erishishga qaratilgan xatti-harakatlarning natijalari sifatida qaraladi.

2) jinoyatning kriminalistik xususiyatlari elementlariga yagona tizim sifatida qaraladi. Uning tizimni tashkil etuvchi prinsipi jinoyat sodir etgan shaxs kriminalistik xususiyatining boshqa tarkibiy qismlariga subyektiv munosabatidir[17].

Usulning nazariy asoslari inson xatti-harakatlarining shaxsiy determinizmi to`g`risidagi qoidaga asoslanadi, ya`ni jinoyat sodir etgan shaxs "shaxsiyati" uning xatti-harakatlarida namoyon bo`ladi, deb ta`kidlanadi. Shu bilan birga, odat bo`lib qolgan xatti-harakatlar insonning ongli nazorati ostida bo`lmagan avtomatizm darajasiga yetkaziladi[11]. Jinoyat joyida qoldirilgan izlar odatdagi xatti-harakatlar usullarini va ular orqali jinoyatchining "shaxsini" aniqlashga imkon beradi[12; 13; 14].

O`tkazilgan tadqiqot va ilmiy tahlillar shuni ko`rsatadiki, bir qator bir xil jinoyatlarni sodir etgan shaxsning xatti-harakati ularni sodir etish maqsadiga (masalan, jinsiy ehtiyojlarni qondirish) emas, balki algoritmgaga, ya`ni uni qanday sodir etish kerakligi, jinoyat sodir etgan shaxs qanday his-tuyg`ularni boshdan kechirishi kerakligiga bog`liq bo`ladi[7; 8]. Jinoyat jarayonini o`zgartirish mumkin emas. Jinoyat ssenariysi majburiy elementining yo`qligi butun jinoyat jarayonining samarasizligini keltirib chiqaradi. Jinoyat sodir etgan shaxs o`z niyatlarini amalga oshirishni to`xtatadi yoki sodir etilgan jinoyatga qaramay, yana jabrlanuvchi qidiradi. Ushbu qoida davomli sodir etiladigan ko`plab jinoyatlarga xosdir.

Shu bilan bir qatorda, jinoyat belgilari va jinoyat sodir etgan shaxs o`rtasidagi aloqani o`rnatishda ikkita yondashuv mavjud:

1) *statistik yondashuv* – jinoyat sodir etgan shaxs belgilari va jinoyatning kriminalistik xarakteristikasi (ularning umumiyligi) belgilari bilan bog`liq bo`lgan mavjud statistik ma`lumotlarga asoslanadi. Ular oldin ochilgan jinoyat ishlarining o`xshash toifasi bilan aniqlanadi. U AQSh, Angliya, Gollandiya va boshqa ba`zi mamlakatlar politsiyasining tergov va tezkor-qidiruv faoliyati amaliyotida faol qo`llaniladi. Shu bilan birga, ma`lum bir holatda, statistik jihatdan eng kam aniqlangan xususiyat eng ishonchli va ko`proq ma`lumotga ega bo`lishi ham mumkin.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

2) *analitik va psixologik yondashuv* – jinoyat sodir etgan shaxs harakatlarining subyektiv shaxsiy mazmunini ochib berishga qaratilgan bo`lib, uning belgilari to`g`risida asosli versiya ilgari suriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda tashqi qiyofa belgilarining xulq-atvor belgilari bilan aloqasi ularning psixologik, semantik munosabatlari orqali amalga oshiriladi[9; 15; 17].

Aynan shu yondashuvlarni hisobga olgan holda, butun dunyo qidiruv byurolari tomonidan besh qadam yoki bosqichdan iborat quyidagi psixologik portretni tuzish tartibi ishlab chiqildi:

1) avval shunday xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslar jinoyati va jinoyat turlarining (psixo-psixiatrik tipologiya) xususiyati va mohiyatini batafsil o`rganish, tahlil qilish;

2) tergov qilinayotgan jinoyat joyini to`liq tahlil qilish;

3) jabrlanuvchining (agar bir nechta bo`lsa, qurbonlarning) va gumon qilinuvchining (gumon qilinuvchilarning) yon-atrofini, kasbiy faoliyatlarini va sevimli mashg`ulotlarini chuqur o`rganish;

4) tergovga jalb qilingan barcha shaxslarning mumkin bo`lgan motivatsion omillarini shakllantirish;

5) jinoyat sodir etgan shaxsning tavsifi (tashqi xulq-atvor asosida – uning ehtimoliy psixologik mohiyatining namoyon bo`lishi).

Jinoyat sodir etgan shaxs psixologik portretini yaratishning texnologik algoritmi quyidagi uchta asosiy texnikani o`z ichiga oladi:

1) jinoyatning kriminalistik mexanizmini qayta tiklash usuli;

2) jinoyat sodir etgan shaxs xatti-harakatlarini psixologik modellashtirishni qabul qilish;

3) jinoyat sodir etgan shaxs xatti-harakatlarini psixologik talqin qilish usuli[17].

Kriminalistika mexanizmini qayta tiklash jarayonida jinoyat hodisasi sodir bo`lgan joyni tekshirishga alohida e`tibor beriladi. Har qanday, hatto bir qarashda ahamiyatsizdek ko`ringan “tafsilot” ham gumon qilinuvchilar doirasini toraytirishi mumkin.

Olingan ma`lumotlarga ko`ra, jinoyat sodir etgan shaxs “individual harakatlarini” (xususiyatlarini) tahlil qilishning psixologik usullari yordamida aniqlash keyingi asosiy vazifa hisoblanadi. Jinoyat sodir etgan shaxs xatti-harakatlarini psixologik modellashtirishni qabul qilish mavjud vaziyatga qarab inson harakatlarining parametrlariga asoslanadi:

- insonning harakati aksariyat odamlarning harakatlariga qanchalik kam mos kelsa, xuddi shu vaziyatda, bu uning shaxsiyati bilan bog`liq bo`ladi;

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

- odam turli vaziyatlarda qanchalik bir xil harakat qilsa, uning xatti-harakati individual xususiyatlarga bog`liq bo`ladi[10].

Jinoyat sodir etgan shaxs xatti-harakatlarini (individual harakatlar) psixologik talqin qilish – bu uning asosiy vazifasi bo`lgan muayyan kriminalistik vaziyatlarni hisobga olgan holda, jinoyatchining xatti-harakatlarini tushuntirish, psixologik asoslashdir.

Ushbu texnikaning bir qismi sifatida jinoyatchining “kuchli” va “zaif” tomonlari aniqlanadi va tushuntiriladi. Jinoyatchi xatti-harakatlari uning shaxsiy parametrlari doirasida baholanadi. Masalan: *yo`nalish* (ehtiyotlar, motivlar, munosabat, hayot rejaları, tushunchalar, qadriyat yo`nalishlari, tendensiyalar, didlar, sevimli mashg`ulotlar); *xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari* (shu jumladan, demografik, madaniy, ijtimoiy va shaxslararo munosabat, rollar, turmush tarzi va aloqa); *xarakterologik fazilatlar* (xarakter, aksentlangan shaxsiyat xususiyatlari); *aqliy xususiyatlar va jarayonlar* (intellektual, hissiy-ixtiyoriy sohalarning xususiyatlari, idrok, e`tibor, nutq); *operatsion xususiyatlar* (odatlar, tajribalar, ko`nikmalar, bilimlar); *biopsixik xususiyatlari* (temperament, jinsiy, yosh, morfologik, patologik xususiyatlar, sog`liq holati); *jinsiy doira xususiyatlari* (jinsiy orientatsiya, shaxsiy muammoning biologik va ijtimoiy determinantlari (aniqlovchilari)).

Amaliyotda tergov qilinayotgan jinoyat vaziyatlari aybdorning aqliy tomondan zaifligi haqidagi versiyani keltirib chiqaradigan, ya`ni aqli noraso yoki ruhiy holati buzilgan shaxs tomonidan tajovuz qilish holatlari ham mavjud. Shuningdek, ayblanuvchilar jinoiy javobgarlikdan qochish maqsadida, ruhiy kasallik t`og`risidagi ma`lumotnomalarni soxtalashtiradigan holatlar yo`q emas. Ruhiy holatning buzilganligi g`oyasi asosan, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar yoki ehtiyotsizlik asosida sodir etilgan takroriy va davomli jinoyatlarda ko`proq uchraydi. Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining ruhiy salomatligiga oid har qanday asosli shubha to`liq tekshiruvni talab qiladi. Shuning uchun aqli noraso yoki ruhiy holati buzilgan deb topilgan shaxs o`z xatti-harakatlari uchun javobgar bo`lishi mumkin emas. Chunki ushbu holatda jinoyat tarkibi elementining subyektiv tomoni mavjud bo`lmaydi. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 17-moddasida ham ***jinoyat sodir etgunga qadar o`n olti yoshga to`lgan, aqli raso jismoniy shaxslar*** javobgarlikka tortilishi belgilab qo`yilgan[16].

Shuning uchun, jinoyat sodir etgan shaxsning psixologik portretini yaratishda psixiatrik yondashuvni alohida ta`kidlash muhim ahamiyat kasb etadi. U klinik va psixiatrik diagnostikaning barcha ko`plab materiallariga tayanadi. Natijada jinoyatning umumiy tasviriga, shuningdek jinoyat sodir etgan shaxsning ikki yoki uchta xususiyatiga

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

ko`ra, odatda “ruhiy og`ish” belgilari bilan birga keladigan boshqa belgilarni ongli ravishda topishga harakat qilinadi. Masalan, nomusga tegish asnosidagi odam o`ldirish jinoyatini sodir etish motivi bilan jinoyat sodir etilgan joyda, ayniqsa jabrlanuvchining tana va murdasi bilan sodir etilgan harakatlar izlarini tahlil qilish, ba`zida uning jinsiy patologik xususiyatlarini, ya`ni patoseksual motivatsiya shaklini to`g`ri aniqlashga va ularni ma`lum bir nozologik birlikka¹ olib borishga imkon beradi.

Jinoyatlarni tergov qilishda psixiatriya bilimlari ish bo`yicha qo`shimcha va yangi ma`lumotlarni olish imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi. Amaliyot shuni ko`rsatadiki, undan foydalanish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- a) jinoyat sodir etish mexanizmini professional darajada batafsil qayta tiklash;
- b) jinoiy hodisaning ma`lum bir elementida amalga oshirilgan psixopatologik tuzilmani aniqlash orqali aybdorning shaxsiga “o`tish” ni amalga oshirish.

Somatik (tanaga oid) xususiyatning tibbiy ko`rsatkichlari, agar gumon qilinuvchilarning ma`lum bir doirasi mavjud bo`lsa, bu bilvosita identifikator sifatida eng mos keladigan xususiyatdir. Xuddi shu tarzda, psixologik omborning xususiyatlari va aybdor xatti-harakatlarining tavsifi, ularning xususiyatlari, masalan, patoseksual motivatsiya bilan muhim korrelyatsion aloqalari asosida aniqlanadi. Ular “sof” shaklda tergov va qidiruv organlari uchun mos bo`lmagan identifikatsiya belgilaridir va shuning uchun dastlabki tergov doirasida tergov harakatlari ularni amalga oshirishda ulardan foydalanishning tegishli qo`shimcha usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Yuqoridagilar psixiatriya bilimlarini psixologik portretni tuzish metodologiyasiga jalb qilish zarurligini ko`rsatadi. Chunki ular aybdorning belgilarini aniqlash uchun jinoiy hodisani bilish imkoniyatlarini kengaytiradigan juda boy "ma`lumotlar bazasi" hisoblanadi.

Jinoyatchining psixologik portretini yaratishning ko`rib chiqilgan metodlari uning harakatlari subyektiv mazmunini belgilash, shuningdek, ularning orqasida yotgan motivlarni aniqlash, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan ko`proq asosli versiyalarni ilgari surishga imkon berishini ko`rsatadi. Bu o`z navbatida, jinoyatlarni tergov qilishni optimallashtirishga yordam beradi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko`rish, uni sodir etish va yashirish jarayonida jinoyatchi mustaqil faoliyat subyektini sifatida atrof-muhitda o`z xususiyatlari orqali namoyon bo`ladi. Bir vaqtning o`zida paydo bo`lgan izlar u haqidagi muayyan ma`lumotlarni o`z ichiga oladi. Ushbu ma`lumotlarni to`plash, tadqiq qilish, baholash va ulardan

¹ **Nozologik shakl (nozologik birlik)** - bu muayyan kasallik bo`lib, u mustaqil ravishda, belgilangan sabablar, rivojlanish mexanizmlari va xarakterli klinik morfologik namoyishlar asosida ajralib turadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

foydalanish tergovchi, tezkor-qidiruv xodimi, surishtiruvchi, jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash bo`yicha ekspert faoliyatining mazmunini tashkil etadi.

Jinoyatchi shaxsiy xususiyatlarini namoyish etish o`zaro ta`sir jarayonida amalga oshirilganligi sababli, ushbu o`zaro ta`sirning xususiyatlari dalillarni to`plash, tadqiq qilish, baholash va ulardan foydalanish uchun zarur vositalar va usullarni ishlab chiqish va qo`llashga bevosita ta`sir qiladi.

XULOSA

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, tergov jarayonida psixologik portretndan foydalanish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Chunki psixologik portretnda jinoyatchi haqida batafsil va turli xil ma'lumotlar mavjud bo`ladi. Psixologik portretndagi ma'lumotlar eng ehtimoliy tergov versiyalarini ilgari surish, shuningdek, yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish imkonini beradi. Bunda psixologiya va psixiatriya bilimlaridan keng tarzda foydalangan holda faoliyat olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI (REFERENCES)

1. Ситковская О.Д., Конышева Л.П. Новые направления судебно-психологической экспертизы. - М.: Юрлитинформ, 2000. С. 3
2. Гросс. Г. Руководство для судебных следователей как система криминалистики - М., 1985.
3. Самовичев Е. Г. Оценка розыскного значения признаков поведения человека на месте преступления//Проблемы использования нетрадиционных психофизиологических методов в раскрытии преступлений". - М. 1995. С. 60
4. Папкин А. И., Анфиногенов А. И. Психологический портрет преступника: понятие, виды, методика составления // Право и юридическая психология. М., 1995. №6. С. 6-14.
5. Анфиногенов А.И. Психологический портрет преступника- его разработка в процессе расследования преступления: Дис.... канд. юрид. наук. — М., 1997. С.3.
6. Протасевич А.А. Поисковый портрет преступника как интегративная система. -Иркутск, 1998.
7. Серийные сексуальные убийства: Учеб; пособие / Под ред. Ю; М; Антоняна. - М.: МЮИ МВД России, Изд-во «Щит-М», 1997. - С. 121-159;
8. Сафуанов, Ф. С. Пограничные психические расстройства и психологические механизмы криминально-агрессивных действий // Преступное

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 1, 31 Января

поведение (новые исследования): Сб. науч. тр. / ВНИИ МВД России. - М., 2002. С. 25-32.

9. Самовичев Е. Г. К методологии криминогенетического анализа // Личность преступника: методы изучения и проблемы воздействия: Сб. науч. тр. ВНИИ МВД России. - М., 1988. С. 50-60
10. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. — М, 1986. С. 16.
11. Burgess, A. & Douglas, J. & Hartman, G., & McCormack, A. & Ressler, R. Sexual Homicide: A Motivational Model // Journal of Interpersonal Violence. - Vol. 1 . - № 3 ; - Sept. 1986:—P] 251-272.
12. Hazelwood, R. & Reboussin, R. & Warren, J. Serial Rape: Correlates of Increased Aggression and the Relationship of Offender Pleasure to Victim Resistance // Journal of Interpersonal Violence. - Vol. 4. - № 1. - March 1989. - P. 65-78
13. Hazelwood, R. & Warren, J. The Criminal Behavior of the Serial Rapist // FBI Law Enforcement Bulletin. - February 1990. - P: 11-16;
14. Hazelwood, R. & Reboussin, R. & Warren, J. & Wright, J. Prediction of Rapist Type and Violence from Verbal, Physical, and sexual scales // Journal of Interpersonal Violence. — Vol. 6; — № 1. — March 1991. - P. 55-67.
15. Психологический портрет преступника, его разработка в процессе расследования преступления: Дис. ... канд. психол. наук. - М., 1997;
16. <https://lex.uz/docs/-111453>
17. Прикладная юридическая психология [Электронный ресурс] – электрон. дан. – Режим доступа: http://yurpsy.bu.ru/help/bib/stol/8_8.htm (2003, 10 окт.).